

ADABIY TIL VA BUVAYDA TUMANI SHEVALARI

Mo‘sojonova Durdonaxon Bahodirjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

R.Shukurov

Filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy til va Buvayda tumani shevalaridagi so‘zlarning farqlari, shevadagi so‘zlarning qisqagina lug‘ati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: adabiy til, sheva, dialekt, leksik, semantik, Buvayda shevalari, me‘yor, fonetik, grammatik.

LITERARY LANGUAGE AND THE DIALECT OF BUVAYDA DISTRICT

Abstract: This article explains the differences between the literary language and the dialects of Buvayda district, as well as a short dictionary of dialect words.

Key words: literary language, dialect, dialect, lexical, semantic, Buvayda dialects, norms, phonetics, grammar.

O‘zbek dialektologiyasi o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalish chegaralarini o‘rganadi. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy ma‘naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Aslida ham ona tili deganda sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. Demak, shevalar to‘g‘risidagi fanni o‘rganish talabalarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini tug‘diradi. To‘g‘ri, har bir madaniyatli shaxs rasmiy doiralarda o‘zbek adabiy tilida muomala qilishi shart, lekin bu o‘z shevasini unutishi kerak degan so‘z emas.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘zbek milliy tilining oliy formasi — ishlov berilgan. me'yorlashtirilgan, millat vakillarining barchasi uchun umumiy bo‘lgan barqaror

shaklidir”.¹¹⁶ Demak, u milliy tilga zid qo‘yilmaydi, undan boshqa tizim ham emas, balki shu milliy tilning yuqoriroq bosqichi, tartibga solingan bosh ko‘rinishi. xolos.

Dialekt — umumxalq tilining malum etnik guruhga mansub ko‘rinishi.

Sheva — mahalliy dialektning fonetik, leksik, grammatik umumiylikka ega bo‘lgan, bir yoki bir necha qishloqni o‘z ichiga oluvchi kichik bir qismi. Dialekt va shevalar adabiy tilning shakllanishida ishtirok etadi, ammo adabiy tildan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

a) adabiy til millatning barcha vakillari uchun umumiydir, dialekt va shevalar esa millat tarkibidagi etnik guruhlarining har biri uchun alohidaalohida bo‘ladi, bir-biridan fonetik, leksik, grammatik jihatdan farqlanadi;

b) adabiy tilning yozma shakli mavjud: u ma‘lum me‘yorlarga bo‘ysundirilgan yozuv sistemasiga asoslanadi. Dialekt va shevalar uchun alohida adabiy-orfografik yozuv yo‘q;

d) adabiy tilning qo‘llanishi hududiy (territorial) jihatdan chegaralanmaydi, dialekt va shevalarning qo‘llanishi esa bu jihatdan chegaralangandir;

e) adabiy tilda davlat ishlari — xalq ta‘limi, matbuot, radio-televideniya, ilm-fan, ma‘muriy-idoraviy hujjatlashtirish ishlari olib boriladi; qonun, farmon va qarorlar shu tilda e‘lon qilinadi. Dialekt va shevalar bu funksiyada qo‘llanmaydi.

Buvayda Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahriga yondosh tumanlaridan. Shaharga yaqin qishloqlarda Qo‘qon shevasining ta‘siri seziladi. Boshqa joylarda Farg‘ona viloyatining Bag‘dod, O‘zbekiston, Beshariq, Furqat tumanlari lahjasiga yaqin shevada so‘zlashiladi. Quyida e‘tiboringizga havola etilayotgan mo‘jaz lug‘at ko‘proq ana shu hududga xos so‘zlardan iborat. Bu hudud odamlari uquvsizlik, lanjlik, manfaatparastlik kabi illatlarni juda yomon ko‘radi, chog‘i, tanbeh ma‘nosidagi so‘zlar ko‘p.

Bu so‘zlarning ayrimlari nafaqat Farg‘onada, balki boshqa viloyatlarimizda ham ishlatilishi mumkin.

¹¹⁶ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. “NAVRO‘Z” nashriyoti 2016

Bo‘riq – makka yoki jo‘xori poyasining mol-qo‘y yeganidan so‘ng qolgan bargsiz qismi.

Yoz kunlari tandirni bo‘riq yoqib ham oqartirish mumkin.

Dimiqtirmoq – boshini suvga tiqib, suv yuttirmoq, shu yo‘l bilan qiynamoq.

Aka, anavini qarang, dimiqtiraman deyapti.

Yemgo‘sh – til-jag‘li, o‘zining gapini ma‘qullab turaveradigan odam.

E-e, g‘irt yemgo‘sh ekansan-ku! Ko‘rganni eshitgan yengibdi, deb shuni aytishsa kerak-da!

Jippang‘ – to‘la, labigacha to‘ldirilgan, to‘kilay-to‘kilay deb turgan.

Paqirni jippang‘ qilib qo‘ygan ekansan, cho‘mich solgan edim, suvi to‘kildi.

Kesmaldak, keskaldirik – bargsiz, quruq tut novdasi.

Kesmaldaklarni bostirmaning tomiga bosib qo‘ydik.

Lashim – yirik-mayda aralash, yoppasiga.

Kartoshkani lashim besh ming so‘mdan sotdik.

Katta – boboga shunday murojaat qilinadi. “Katta ota” iborasining qisqartmasi bo‘lsa kerak. Biroq bu so‘z hozir iste‘moldan chiqib ketyapti. Uning o‘rniga “opoqi”, “opoqdada”, “bobo” so‘zlari ishlatilyapti.

Kattamning ham yoshlari o‘tib, esi kirdi-chiqdi bo‘lib qoldi.

Nushqut – nishxurd, yem-xashak, o‘t qoldig‘i.

Yangiqo‘rg‘ondan olib kelgan qo‘yim juda yaxshi chiqdi, umuman nushqut chiqarmaydi.

Ozitqi – adashtirib, yo‘ldan ozdiruvchi maxluq, ajina.

“Bemahalda yurma, ozitqi ozdirib ketadi”, deb tayinladi enam.

Otaqari – kattalarning gapiga aralashib, aql o‘rgatadigan bolaga nisbatan ishlatiladi.

“Tushunmagan narsangga otaqarilik qilma, bolam”, – dedi enam.

Enaqari – kattalarning gapiga aralashib, aql o‘rgatadigan bolaga nisbatan ishlatiladi.

"Sen enaqarilik qilma, qizim " deb koyidilar oyim.

Palg‘ari – uzum novdasini yerga ko‘mib, boshqa joyga o‘tqazish. Yerga ko‘milgan qism kelajakda tomirga aylanadi va tok kuchli oziqlanadi.

Bugun o‘n tup uzumni palg‘ari qildim.

Poldir – dovdur, qo‘pol harakat bilan yon-atrofidagi narsalarni ag‘dar-to‘ntar qilib yuradigan odamga nisbatan ishlatiladi.

Buncha poldiraysan? Sendaqa poldirni ko‘rmaganman, bir chekkada turgan obdastani ag‘darib ketganingni qara!

Polpis – kir-chir, o‘ziga e‘tiborsiz yuradigan odam.

Polpisga o‘xshaysan-a! Kiygan kiyiming – bir ahvol, yag‘iri chiqib yotibdi!

Po‘nka – qarq‘ani shu nom bilan ham atashadi.

Hozir po‘nkalar yozda ham uchib ketmayapti.

Sumalanmoq – lapashanglik, lanjlik qilmoq. Menimcha, bu so‘z “sumalak” so‘zi bilan o‘zakdosh. Sumalak juda sekin pishadi, suyuq bo‘ladi. Odatda, lavangtabiat odamlar atalaga ham o‘xshatiladi.

Buncha sumalanasan, tezroq yursang-chi!

So‘ltamat – biror ishni eplamay, doim bo‘shashib yuradigan odam.

So‘ltamatlanma, qadamingdan o‘t chaqnasin, o‘t!

Uchelish – “T” shaklidagi uch yo‘l tutashmasi, bir tomoni berk chorraha.

Uchelishda o‘rtog‘im Umidjonni ko‘rib qoldim.

Qapishtirmoq – futbol o‘yinida to‘pni raqibga qarata qattiq zarb bilan yo‘naltirmoq. Ko‘pincha katta yoshlilar kichiklarni qapishtirib, qo‘rqitadi. Shu orqali oson aldab o‘tib, gol urishga harakat qiladi.

“Jonli devorga turmayman, qapishtiradi”, dedi u akasiga.

Qiyratmoq – sho‘xlik qilib qiynamoq.

Gulchehraning o‘g‘li juda sho‘x bo‘libdi, onasini kuni bo‘yi qiyratadi.

G‘ijirqum – ariq ostida yig‘ilib qoladigan mayda qum. Bu so‘z o‘rnida “shilqum” so‘zi ham ishlatiladi.

Sotib olsang, ortib qoladi. Bu yerni suvagani Qilovlidan g‘ijirqum olib kelsang ham yetadi.

Ho‘pitmoq – cho‘milmoq.

Bugun Oqariqqa ho‘pitgani boramiz.

Yag‘ir- kir, hamma yog‘i iflos bo‘lgan odamga nisbatan aytiladi.

Ahvolingni qara, yag‘ir bòlib ketibsan.

Hovdir- doimo shoshilib yuradigan, shoshilib hovdiraydigan insonga nisbatan ishlatiladigan so‘z.

Hovdir, buyoqqa kel, qara nima ish qilib qo‘yganingni!

Buvo- dadaning ukasi, amaki.

Men bugun do‘konda buvomni ko‘rdim.

Zakan- ariqdan ko‘ra kattaroq qilib ko‘vlangan, turli suv o‘tlari o‘sadigan joy.

Zakanni chuqurroq kovlatib yana ham kengaytirish kerak, buni boshqarmaga ayting aytinglar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Buvayda tumani shevalari adabiy tildan ancha yiroqda ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi kunda o‘sib borayotgan yosh avlodlarimizning aksariyat qismi adabiy tilda sopzlashmoqdalar bu esa shevalarning va shevadagi ba‘zi bir adabiy tilda umuman uchramaydigan faqatgina shevaga xos so‘zlarning yo‘qolib ketishiga olib keladi. Buning oldini olish uchun shevaga xos bo‘lgan barcha so‘zlarni, iboralarni va jummalarni yozib, ularni kelajak avlod uchun yetkazishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Каримов И. Ватан ва халк мангу колади. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистан Миллий кутубхонаси нашриети, 2010. — Б. 123.
2. Ashirboev S. O‘zbek dialektologiyasi. •- Toshkent, 2011, 2013.
- 3.Бегалиев М. К- Ўзбек тилининг К^орабулок шеvasи лексикаси.- Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2007.
4. Бобожонов Ў. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси. НДА.
5. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi.“NAVRO‘Z” nashriyoti 2016
Elektron talim resurslari
- 6.www.pedagog.uz
- 7.www.edu.uz